



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Xalmuratova Ogulsaltan**

*Ilmiy rahbar: Matyakupov Sa'dulla filologiya fanlari doktori,  
dotsent. sadulla.yoqub@gmail.com*

*Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi talabasi. E-mail: ogulsaltanxalmuratova@gmail.com*

## SALOMAT VAFO HIKOYALARIDA BADIY XARAKTER VA PSIXOLOGIZM

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek hikoyachiligidan falsafiy-psixologik tahlil masalasi tadqiq etilgan. Shuningdek, muammoning o'zbek adabiyotshunosligida o'r ganilishiga munosabat bildirilgan. Mavzu Salomat Vafo ijodi misolida tadqiq etilib nazariy va badiiy tahlil natijalari umumlashtirilgan.

**Kalit so'zlar.** Individuallik, badiiy ifoda, obrazlilik, badiiy tafakkur, falsafiy talqin.

### ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ХАРАКТЕР И ПСИХОЛОГИЗМ

### В РАССКАЗАХ САЛОМАТА ВАФО

**Халмуратова Огулсалтан**

Научный руководитель: Матякупов Саъдулла  
доктор филологических наук, доцент. [sadulla.yoqub@gmail.com](mailto:sadulla.yoqub@gmail.com)

Студент по направлению Узбекский язык и литература Нукусского  
государственного педагогического института.

E-mail: [ogulsaltanxalmuratova@gmail.com](mailto:ogulsaltanxalmuratova@gmail.com)

**Аннотация.** В статье рассмотрены вопросы философско-психологического анализа узбекского литературоведения. С точки зрения философско-психологического анализа изучается творчество Саломат Вафо. Обобщены итоги теоретико-художественного толкования.

**Ключевые слова:** индивидуальность, художественная интерпретация, образность, художественная идея, философическое толкование.

**ARTISTIC CHARACTER AND PSYCHOLOGISM  
IN THE STORIES OF SALOMAT VAFO**

**Xalmuratova Ogulsaltan**

Scientific supervisor: Matyakupov Sadulla

Doctor of Philology, Associate Professor. [sadulla.yoqub@gmail.com](mailto:sadulla.yoqub@gmail.com) Student  
majoring in Uzbek language and literature at Nukus State  
Pedagogical Institute. [ogulsaltanxalmuratova@gmail.com](mailto:ogulsaltanxalmuratova@gmail.com)

**Annotation.** This article deals with the problem of philosophic-psychological analyses of Uzbek literature study. The philosophic-psychological analyses of Salomat Vafo creation is studied in this article. The result of theoretical and literary interpretation are summarized in this article.

**Keywords:** individuality, literary interpretation, literary, idea, philosophic interpretation.

**Kirish (Introduction).** Salomat Vafo zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lib, uning hikoyalarda insoniy munosabatlar yuksak mahorat bilan badiiy talqin qilinadi. Adiba hikoyalari inson ma’naviy olami, shaxs taqdirining jamiyat bilan uyg‘unlikda tasvirlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, insonni anglash, uning qalb haqiqatini tushunish va hayotning butun murakkabligi bilan tasvirlashda ijodkor o‘ziga xos uslubga ega. Shuningdek, yozuvchi asarlari yosh avlod tarbiyasida, insonning o‘zligini anglashida teran badiiy tadqiq hamda tasviriy ifodalarga ega. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, inson erki, ko‘ngil hurriyati barcha davr va zamonlarda bashariyat uchun aziz ne’mat sanaladi. Negaki, u insoniyat tarixida eng muhim qadriyat sifatida qadrlangan holda erk vaadolat, ezgulik, ma’naviy go‘zallik tarzida ulug‘lanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Insonni taqdirini badiiy tadqiq qilish, qalbini anglash va aks ettirish borasida Salomat Vafo ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda muallif asarlari bir qator monografik tadqiqotlar obyektlaridan biri sifatida o‘rganilgan. Xususan, adiba hikoyalari xususida mulohaza yuritgan holda S.Matyakupov shunday xulosaga kelgan edi: “Salomat Vafoning “Ko‘ngil farishtasi”, “Kun kechayotgan odam”, “Tutilgan oy” hikoyalari fikrlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu asarlarning o‘zaro-ruhan yaqinligi ma’naviy-axloqiy masalalar ustuvorligi bilan belgilanadi. Yana insonni badiiy tasvirlashdagi individual tafakkur tabiatining ijodiy yo‘sini bilan ham xarakterlanadi. Qolaversa, realizm metodi tabiatdagi xilma-xil individual uslublarning bir-birini kamol toptiruvchi, ijodiy boyituvchi o‘zaro hamkorligidan, ijodiy ta’siridan ham shahodatlik beradi” [1. 99].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Salomat Vafoning “Ko‘zlar” hikoyasi inson hayotidagi qiyinchilik va iztiroblar, kurashlardan iborat bo‘lib, asar qahramoni – Oygul taqdiri misolida yoritiladi. Bu asar ayol zotining ichki olami, sabr-

toqati va hayot uchun kurashdagi matonatiga bag‘ishlangan deyish mumkin. Zero, uning mazmunida har qanday vaziyatda ham hayot sinovlari oldida taslim bo‘lmashlik, mavjud muammolarga yechim topish masalasi aks etgan. Zero, Xurshid Do‘stmuhammad ta’kidlaganidek: “Chinakam fojia boshga tashvish tushganida emas, boshga tushgan tashvishdan xolos bo‘lish chorasi topa olmaslikni anglab yetishda”dir [2. 77]. “Ko‘zlar” hikoyasidagi asosiy mavzulardan biri yaqin insонning xiyonatidir. Bu orqali yozuvchi oilaviy munosabatlar, yoshlar hayotiga kattalar ta’siri va uning natija hamda oqibatlari xususida mulohaza yuritadi.

“O‘zi bo‘lmaydigan narsa boshidan bo‘lmash ekan, o‘sha non sindirishda onasi to‘yni qaytaraman deganda, qaytarib yuborsak bo‘lar ekan. Otang qizimning baxti buzilmasin deb yalinib -yolvordi, qayg‘urma bolam, ko‘zingga yomon ta’sir qiladi, hali bizning ko‘zimiz ochiq, xo‘rlatib qo‘ymaymiz. Holatimga hayron qolmoqda edim, go‘yo kechagina shu voqeа haqida birov ogohlantirib qo‘ygandalо, bir qadar xotirjam va sovuqqon tutmoqda edim” [4. 205-206]. Oygul otasining uyiga qaytib kelgandan so‘ng erining yarashish taklifini qabul qilib yana avvalgi hayotida yashashda davom etishi mumkin edi, lekin “og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichar” deganlaridek takror o‘zini yonib turgan olovga otishni xohlamadi. Balki, Oygulning o‘zi ham aybdor, sabrli bo‘lishi, suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib yashashi kerak edi dersiz, lekin qachongacha? Hamma narsaning hattoki, sabr-toqatning ham chegarasi bor. Inson sabri tugagan nuqtada nima bo‘lishidan qat’iy nazar bu chegarani buzib o‘tishga majbur bo‘lar ekan. Oygul farzandining kelajagi uchun va hayotini yorqin bo‘yoqlar bilan bo‘yashni orzu qilgan holda yolg‘iz o‘zi uyini tashlab ketishdan cho‘chimasligi irodali, kuchli va matonatli ayol ekanligidan darakdir. Ammo, ming afsuslar bo‘lsinki, tinch hayoti uzoqqa cho‘zilmadi, taqdir uni onalik baxtidan mosuvo qildi. Yozuvchi hikoyani oxiriga yetkazmasdan, shu joyda to‘xtatishi orqali o‘quvchiga Oygulning keyingi hayot yo‘li haqida fikr yuritish imkonini yaratadi. Har kim dunyoni o‘z qarichi bilan o‘lchaganidek, kimdur uni shuncha azoblardan keyin yana o‘zida kuch to‘plab baxtli bo‘lish uchun kurashishiga ishonsa, boshqa birov bo‘lib o‘tgan ko‘ngilsizliklardan keyin taqdirga tan bergen holda bir umr baxtsizlikka yuz tutishini bashorat qiladi.

Oygulning “Sen yosh emassan, mehnatlarimni ko‘rding-a, do‘xtirlar umid yo‘q degan joyda, eng nozik tomirlarni iynalar bilan paypaslay-paypaslay ko‘zingni ochdim, endi gap bunday... – Sening vujuding o‘z vazifasini bajarishni unutib qo‘yan edi. Endi sen... – hayajonlanma, hayajonlanish mumkin emas senga, haligi qilday nozik tomirlarning yorilib ketish xavfi bor, shu endi boraver, bir xo‘roz so‘yib mehmona chaqirsang, aytarsan...” [4. 202]. Asar boshida berilgan bu tasvirlar tugun sifatida keyinchalik voqealar rivoji davomida Oygul qismatida izohlanadi. Asar qahramoni xarakterida ko‘zi ko‘rmagan inson qalb ko‘zining charog‘onligi, aksincha ko‘zi ochiq,

lekin qalb ko‘zi ojiz insonlar fe’l-atvori, hayotga nisbatan qarashlari parallel ravishda ifoda qilinadi.

“Ko‘zlar” hikoyasining yakunida qahramon taqdirining noaniqdek qoldirilishi, asardan kelib chiqadigan hukm-xulosa kitobxon e’tiboriga havola qilinishi, shuningdek, Oygul taqdirining kelajagiga ishora qilinishi ijodkor badiiy tafakkurining yuksakligidan dalolat beradi. Ko‘rinadiki, “Inson ruhiyati, ichki olamidagi o‘ziga xoslik hamisha ham tashqi dunyo bilan bir xil nisbatda bo‘lavermaydi. Inson ko‘nglida kechayotgan hissiyotlar, orzu-maqsadlar, intilishlar atrofidagi muhitga kamdan-kam holatlarda to‘g‘ri keladi. To‘g‘ri, inson ruhiyatidagi tadrijiy davomiylik ana shu tashqi muhit ziddiyatlari vositasida shakllanadi. Uning ruhiy tushkunligi ham, ko‘tarinkiligi ham ko‘pincha ijtimoiy muhit ta’sirida yuzaga keladi. Ko‘pincha insonning o‘zi o‘z ruhiy holatini tushunish yoki izohlashga ojizlik qiladi”. Ishimizning ushbu bobida zamondoshlarimiz ruhiyatidagi mana shunday holatlarni bugun yozilayotgan hikoyalar asosida tahlil qilishga harakat qildik.

Salomat Vafoning “Devor” hikoyasi inson umri mohiyatini tushunishga yordam beradi. Hikoya boshida roviy, asar qahramoni – A’zamjonni o‘quvchiga shunday tanishtiradi: “Ilk kelgan mahalim bu yer ko‘zimga yalang‘och, operatsiya xonasiga o‘xshab ko‘rinardi, dardim biroz aridi shekilli, keyinchalik ko‘zim o‘rganib qoldi: rangpar, ozg‘in, jonsarak, bir qarashda qarama-qarshi tuyg‘ular paydo qiladi. Jirkanishmi, rahmdillikmi... bu yerning o‘zi ham asabimni qo‘zg‘ardi, katta xonaning ko‘chaga qaragan bittagina derazasi bo‘lib, uning oldida, hamxonam A’zamjon yalpayib yotardi” [4. 148]. Kasalxona devorlaridan boshqa narsani ko‘rolmay yotgan, lekin xayolida olamni o‘ziga xos tarzda tushungan va tushuntiradigan bu g‘alati – “shaytonlagan” bemor ruhiyati hikoyada o‘zgacha talqin etiladi. Bemor – A’zamjon tashqaridagi go‘zal voqealarni to‘lib-toshib Omon akaga so‘zlab berar ekan, o‘z qalbidagi umid uchqunlarini unga ham yuqtirishga harakat qiladi, lekin inson bor ekan hasad degan illat ham soyadek ortingdan ergashaverarkan. Hikoyada odamlar orasidagi munosabatlar murakkabligi va chin insoniy fazilatlarning qay darajada muhimligi aks etadi. Ta’kidlash kerakki, tadqiqotchi P.Kenjaeva ta’riflaganidek: “Adiba hikoyalari qahramonlari ko‘proq kuchli ruhiy g‘alayonlar, cheksiz ma’naviy tanazzullar iskanjasida aks ettiriladi. Hikoyada hayotning achchiq zarbalari, turmushning ayovsiz sinovlari natijasida shaxsligi, ma’naviy olami imtihondan o‘tayotgan odamlar hayotini ko‘rsatish asnosida adiba milliy adabiyotimizda yangi qahramonlar silsilasini yaratdi. S.Vafo hikoyalarining qahramonlari hayotda juda ko‘p ezilgan, qalbi armonga to‘la taqdir egalaridir. Bunday yondashuv qahramon tuyg‘ularini to‘laroq idrok etish, uni chuqur tushunib tadqiq qilish, insonlarning xatti-harakatlarini yashash sharoiti, tayanadigan axloqiy o‘rnaklaridan kelib chiqib baholash imkonini beradi” [3. 19].

Hikoya yakunidagi “Eratalab ko‘zimni ochsam, rostdan ham A’zamjon joyida ko‘rinmasdi. Jonlantirish xonasiga olib o‘tishibdi: yashasin, uning joyiga avaylabgina o‘tkazib qo‘yishibdi va nihoyat derazaning oldida edim... Hamshiralalar chiqib ketishi bilan deraza tomonga o‘grildim, avval hech narsani anglamadim, u yoq qop-qorong‘u edi. Ko‘zimni ochib-yumdim, qorong‘ulik. Derazaning oldida baland qop-qora devor bor edi, allaqanday idoraning devori yorug‘lik va ko‘chaning shovqini devor yoriqlaridan, oralaridan qisilib, sinib kirar ekan” [4. 157]. Ko‘rinadiki, asarda har ikki personaj tasvirida kontrast uslubi anglashiladi. Bu o‘z navbatida asarda shakl va mazmun mutanosibligini ta’minalashga katta yordam bergen. Zero, “Badiiylik mezonlaridan biri bo‘lmish mazmun va shakl birligidan tashqari har ikkisininig ijodkor ideali, g‘oyasi bilan nurlangan uyg‘unligi ham talab etiladi. Chunki badiiy asardagi har bir narsa, obraz va tafsil o‘zining shaklini faqat talab etilgan shakl orqali namoyish etadi. Badiiy asardagi mazmun faqat talab etilgan shaklga mos tushgandagina to‘la uyg‘unlik yuzaga keladi. Demak, ijodkorning kitobxon shuuriga, ehtirosiga ta’sir ko‘rsata oladigan mazmunni talab etilgan shaklda yetkaza olishi badiiy adabiyotdagi mazmun va shakl muammosining mohiyatini tashkil etadi” [5.93]. Shu ma’noda mazkur unsurlar asarda insonning muayyan holatdagi hayoti orqali uning xarakteri, o‘y-xayoli, ruhiyati, qalb kechinmalari aks ettirylan holda o‘quvchi ma’naviyatiga ozuqa beradi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Kuzatiladiki, Salomat Vafoning hikoyalari odam va olam haqida chuqur mushohadaga chorlaydi. Adiba hikoyalari uning badiiy mahorati, inson ruhiyatini tasvirlashdagi iste’dodi hamda ijodiy individualligini ta’minalaydi. Har bir hikoyada voqealarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonli gavdalantirishi hamda chuqur mulohaza qilishga unday olishi alohida e’tirofga sazovor. To‘g‘ri, voqealarni mayda detallarigacha tasvirlashi biroz zerikarli bo‘lishi mumkin, lekin mazkur holat tasvirlanayotgan muhit bilan birga yashashga zamin hozirlagan. Yozuvchi hikoyalarida asar qahramonlarining ichki ziddiyatlari va hissiy kechinmalari asosiy o‘rinda turadi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati (References):

- 1. Matyakupov S.G. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotining nazariy masalalari (she’riyat va hikoyachilik). Toshkent,Tafakkur avlodи- 2020.**
2. Do‘stmuhamedov X. Hozirgi o‘zbek hikoyachiligidagi badiiy tafakkurning yangilanishi. Toshkent- 1995.
3. Salomat Vafo.Tilsim saltanati .Toshkent, Sharq- 2004.